



Luiza TAGAEVA,

O'zMU tayanch doktoranti

Moxichehra SHOXIDDINOVA,

O'zMU o'qituvchisi

Email: shoxiddinovamoxichehra@gmail.com

Behruz TOJIEV,

O'zR FA Mikrobiologiya instituti tayanch doktoranti

Nilufar ELOVA,

O'zR FA Mikrobiologiya instituti katta ilmiy xodimi, PhD

Qunduz NORMURODOVA,

O'zMU Biologiya fakulteti Mikrobiologiya va biotexnologiya kafedrasi prof.v.b., b.f.d

O'zMU Biologiya fakulteti Genetika kafedrasi mudiri, b.f.d., prof. S.Boboyev taqrizi asosida

DETERMINATION OF PROBIOTIC CHARACTERISTICS OF BACILLUS AMYLOLIQUEFACIENS - NUUz 22 STRAIN ISOLATED FROM MEDICINAL PLANTS

Annotation

Growth on solid and liquid media, tolerance to acidic pH medium and bile, evaluation of enzymatic activities such as gelatinase, catalase, hemolytic, amylase, protease and lipase activities were studied and its safety as a feed additive of *Bacillus amyloliquefaciens* strain - NUUz 22 isolated from the medicinal plant Kalonhoe degremona was investigated.

Key words: Kalanchoe degremona, bacterium, endophyte, probiotic, microorganism, isolate, *Bacillus amyloliquefaciens*, strain, gelatinase, catalase, hemolytic, amylase, protease, lipase, bile.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРОБИОТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ШТАММА BACILLUS AMYLOLIQUEFACIENS - UZMU 22, ВЫДЕЛЕННОГО ИЗ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ

Аннотация

Были изучены рост на твердых и жидких средах, устойчивость к кислому pH среды и желчи, оценка ферментативной активности, такой как желатиназная, каталазная, гемолитическая, амилазная, протеазная и липазная и изучена его безопасность в качестве кормовой добавки штамма *Bacillus amyloliquefaciens* - УзМУ 22, выделенного из лекарственного растения Kalonhoe degremona.

Ключевые слова: Kalanchoe degremona, бактерия, эндофит, пробиотик, микроорганизм, изолят, *Bacillus amyloliquefaciens*, штамм, желатиназа, каталаза, гемолитическая, амилаза, протеаза, липаза, желчь.

DORIVOR O'SIMLIKlardan AJRATILGAN BACILLUS AMYLOLIQUEFACIENS – O'ZMU 22 SHTAMMING PROBIOTIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

Annotatsiya

Kalonhoe degremona dorivor o'simligidan ajratib olingan *Bacillus amyloliquefaciens* – O'zMU 22 shtamming qattiq ozuqa va suyuq ozuqa muhitlarida o'sishi, kislotali pH muhiti va safroga chidamliligi, jelatinaza, katalaza, gemolitik, amilaza, proteaza va lipaza kabi fermentativ faolligini baholash va ozuqa qo'shimchalari sifatida xavfsizligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Kalanchoe degremona, bakteriya, endofit, probiotik, mikroorganizm, izolyat, *Bacillus amyloliquefaciens*, shtamm, jelatinaza, katalaza, gemolitik, amilaza, proteaza, lipaza, safro.

Kirish. Ma'lumki, dorivor o'simliklarda turli xil endofit mikroorganizmlar birga yashaydi. Adabiyotlarda keltirilgan tadqiqotlarga ko'ra, endofit mikroorganizmlar asosan biologik faol birikmalar sintezlashi aniqlangan [1]. Ayniqsa, dorivor o'simliklardan endofit bakteriyalarini ajratib olish va ularning biofaol ikkilamchi metabolitlar sintezlash qobiliyatları, qolaversa probiotik xususiyatlarini o'rganish hamda ularдан chorva mollari va yosh jo'jalarning ovqat hazm qilish tizimida normal mikroflorani ta'minlash, probiotik bilan boyitilgan ozuqa tayyorlashda qo'shimcha sifatida foydalanish borasida keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda [2-5].

Probiotiklar – tirik mikroorganizmlar asosida tayyorlangan preparatlari bo'lib, ular odam yoki hayvonlar organizmiga kirdganda ichak mikroflorasi tarkibini maqbullashtirish orqali xo'jayin organizmida fiziologik, biokimyoiy va immun reaksiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2, 5]. Shundan kelib chiqqan holda, tibbiyot va veterinariya uchun yanada kengroq va faol antagonistik ta'sirga ega biopreparatlarga talabning ortishi II avlod probiotiklari yaratilishiga sabab bo'ldi. II avlod probiotiklari asosan *Bacillus*, *Clostridium* va *Brevibacillus* avlodlariga mansub sporasi hosil qiluvchi bakteriyalar asosida ishlab chiqiladi [6-7].

Ushbu tadqiqot maqsadi - chorva mollarining ichak mikroflorasi tarkibini maqbullashtirish maqsadida dorivor o'simliklardan ajratilgan *Bacillus amyloliquefaciens* - UzMU 22 shtamming probiotik xususiyatlarini aniqlashdan iborat deb belgilandi.

Tadqiqotlar va usullar. Ushbu tadqiqotni bajarish uchun, dorivor o'simliklardan ajratib olingan *B. amyloliquefaciens* - UzMU 22 shtamming patogenlik omillari sifatida hosil bo'ladigan fermentlar: lipaza, jelatinaza, katalaza hosil qilish va gemoliz faolligiga ega ekanligi va metabolizmda ishtirok etadigan (amilaza va proteza) fermentlarni hosil qilish faolligi o'rganildi.

Jelatinaza fermenti faolligini tekshirish uchun faollashirilgan *B. amyloliquefaciens*-1 va *B. amyloliquefaciens*-2 shtammlar na'munasi 15% jelatin tutuvchi ozuqa muhitiga ukol usulida ekilib, 24 saat 37°C termastatda inkubatsiya qilindi.

Lipaza fermenti faolligini tekshirishda foydalanilgan ozuqa muhiti tarkibi, g/l: Tvin 80-10 g, pepton-10 g, NaCl-5g, SaSl₂N₂O-1, agar – 18 g. Ozuqa muhiti Petri likopchalariga solinib, ustiga faollashirilgan shtammlardan tomchi usulida ekildi va 2-7 kun mobaynida hosil bo'lgan zonalar o'chanadi.

Katalaza fermenti faolligini tekshirish uchun *B. amyloliquefaciens*-1 va *B. amyloliquefaciens*-2 shtammlar go'sht peptonli qattiq ozuqa muhitida shtrix usulida ekilib, o'sib chiqqan koloniylardan buyum oynasiga surtma tayyorlandi va ustidan tarkibida 10%oli vodorod peroksid eritmiasidan foydalanildi.

Gemolitik faollikni tekshirishda *B. amyloliquefaciens*-1 va *B. amyloliquefaciens*-2 shtammlari GPA ozuqa muhitiga shtrix usulida ekilib, gemoglobinni o'zlashtirishi ozuqa muhitida o'sib chiqqan koloniylar agarning ranggini o'zgartirishi asosida baholandi [5, 7].

Amilaza fermenti faolligini tekshirish uchun foydalanilgan ozuqa muhitiga tarkibi, g/l: pepton-10 g, kraxmal-2 g, KH_2PO_4 -5 g, agar- 18 g. Tayyor ozuqa muhitiga yangi faollshtirib olingen *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlari tomchi usulida ekildi va 2-10 kun davomida kuzatildi. 10 kundan keyin Lyugol eritmasi asosida hosil bo'lgan zonalar aniqlandi.

Proteaza fermenti faolligini tekshirishda 3% sut qo'shilgan ozuqa muhitidan foydalanildi, sterilangan ozuqa muhitiga Petri likopchalariga quyildi va faollshtirilgan *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlari tomchi usulida ekildi. Inkubatsiya davri 2- 10 kun davom etтирildi va trixlor uksus kislota quyildi, so'ngra zonalar tahlil qilindi [5, 7].

Ovgat hazm qilish yo'lining stress omillariga chidamlilagini aniqlash uchun shtammlarining turli xil pH ko'rsatkichlari va safroga chidamliligi o'rghanildi [5, 7].

Shtammlarning qoramol safrosi ta'siriga chidamlilagini aniqlash uchun 0,1 gr pankreatin, 0,3 g qoramol safrosi, 0,5% NaCl (sterillangan), pH muhitini to'g'rilash uchun 0,1n HaON, tayyor aralashmani 0,22 nmli membranalni filtrdan o'tkazilgan aralashmasidan foydalanildi [5, 7].


Olingan natijalar va ularning tahlili. *Bacillus amyloliquefaciens* - UzMU 22 shtammining morfologik va fiziologik xususiyatlarini aniqlashda ushu shtamming har xil ozuqa muhitlarida o'sishi va farqlarini o'rghanish belgilandi. Suyuq ozuqa muhitida *B.amyloliquefaciens* – UzMU 22 shtammi tajribada 1- shtamm, ya'ni *Bacillus amyloliquefaciens* – UzMU 22 shtamm deb olingen. Bunda, 1-shtamm loyqalanish hosil qilmay o'sishi kuzatildi. Ushbu shtamm qattiq ozuqa muhitida chetlari tekis, ba'zi hollarda notejisiroq, shaffofligi tiniq, gidroliz zona o'lchami 6-10 mm, yuza qismi zinch va yaltiroq ko'rinishdagi tiniq sutrang yoki oq rangdagi koloniylar hosil qiladi. O'sishi va rivolanishi esa, 10°Cdan 55°C harorat oraliglarida erkin o'sadi. Shu bilan birgalikda, MRS, MPB va TSE kabi ozuqa muhitlarida ham yaxshi o'sishi aniqlandi. *B.amyloliquefaciens* - 2 shtammi, nafaqat qattiq ozuqa muhitida, balki suyuq ozuqa muhitida ham loyqalanish kuzatildi. *B.amyloliquefaciens* -2 shtammi qattiq ozuqa muhitida chetlari notejisiroq, lekin shaffofligi tiniq, gidroliz zona o'lchami 5-8 mm, yuza qismi yaltiroq ko'rinishdagi oq rangdagi koloniylar hosil qiladi. O'sishi va rivojlanishi esa, 10°Cdan 55°C harorat oraliglarida o'sishi aniqlandi (1-rasm).



1-Rasm. *B.amyloliquefaciens* -1 va *B.amyloliquefaciens* -2 shtammlarining qattiq ozuqa muhitida va suyuq ozuqa muhitida o'sishi


Navbatdagi tadqiqotimizda, *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining jelatinaza, katalaza, gemolitik, amilaza, proteaza va lipaza kabi fermentlarni sintezlash qobiliyatları aniqlandi.

B.amyloliquefaciens-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlar jelatinaza fermenti faolligini tekshirishda *B.amyloliquefaciens*-1 shtammi jelatinaza fermentini ko'proq sintezlashi, ya'ni jelatinaza faolligi yuqori va ozuqaning pastki qismida bir oz loyqalanish kuzatildi. *B.amyloliquefaciens*-2 shtammda esa jelatinaza faolligi past ekanligini ko'rish mumkin. Chunki ozuqa muhitining faqat yuqori qismida suyuq holatga o'tishi va ozuqaning tepasida kulturaning to'planib o'sishi kuzatildi (2-rasm).



2-Rasm. *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining jelatinaza fermenti faollikkari


Katalaza fermenti faolligini tekshirish *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarning o'sgan shtrixlari ustiga 10%li perekis eritmasidan 1 tomchi qo'yildi. *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarning ikkalasida ham katalaza faolligi kuzatilmadi (3-rasm).



3-Rasm. *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2-shtammlarining katalaza fermenti faollikkari

Gemolitik faollikkni tekshirish uchun *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlari 5% GPA ozuqa muhitiga shtrix usulida ekildi. Gemoglobinni o'zlashtirishi ozuqa muhitida o'sib chiqqan koloniylar agarning ranggini o'zgartirishi asosida baholandи (4-rasm).

Lipaza fermenti faolligini tekshirish uchun esa, Petri likopchalariga Tvin 80-10gr., pepton-10gr., NaCl-5gr., $\text{SaSl}_2\text{N}_2\text{O}$ -1gramdan iborat ozuqa muhitidan 20ml solinib, ustiga faollshtirilgan shtammlardan tomchi usulida ekildi va 2- 7 kun moboynida hosil bo'lgan zonalar o'lchandi (5-rasm).



4-5-Rasmlar. *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining gemoliz (4-rasm, 1) va lipaza fermenti faollikkari (5-rasm, 2-3)

Olingen tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, *B.amyloliquefaciens*-1 shtammida α -gemoliz kuzatilib, yashil rang segmentini sintez qilishi kuzatildi. *B.amyloliquefaciens*-2 shtammida esa gemoliz holati kuzatilmadi. *B.amyloliquefaciens*-1 shtammini lipaza fermentini sintez qilish qobiliyatiga ko'ra esa, gidroliz zona o'lchami 35-40mmni tashkil etgan bo'lsa, *B.amyloliquefaciens*-2 shtammida lipaza ozuqa muhitida o'sishi kuzatilmadi.

Navbatdag'i tadqiqotimizda, *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining amilaza va proteaza fermentlari faolliklari kuzatildi. Bunda, Petri likopchalariga pepton-10gr, kraxmal-2gr, KH_2PO_4 -5gramdan iborat tayyor ozuqa qo'yildi va kaplya usulida ekildi va 2-10 kun davomida kuzatildi. 10kundan keyin 5ml lyugolning spirtdag'i eritmasi asosida hosil bo'lgan zonalar aniqlandi (6-rasm).

Proteaza fermenti faolligini tekshirish uchun 3%li suvli agar va sutdan foydalanildi. Tayyor bo'lgan aralashmadan 20mldan Petri likopchalariga quyildi va faollashtirilgan *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlari tomchi usulida ekildi. Inkubatsiya davri 2-10 kun davom etтирildi va 5% uchxlor uksus kislotosi qo'shilib, hosil bo'lgan zonalar tahlil qilindi (7-rasm).


Olingen natijalardan ko'rini turibdiki, *B.amyloliquefaciens*-1 *B.amyloliquefaciens*-1 shtammida amilaza ferment faolligi bo'yicha gidroliz zona o'lchami 40mmdan 45mmgacha zona hosil qilishi aniqlandi. *B.amyloliquefaciens*-2 shtammining amilaza fermenti faolligi kuzatilmadi.

B.amyloliquefaciens-1 shtammining proteaza fermentini sintez qilishi, ya'ni kazeinni parchalashiga ko'ra, gidroliz zona o'lchami 45-50mmni tashkil etgan bo'lsa, *B.amyloliquefaciens*-2 shtammi esa ozuqa muhitida o'sishiga qaramasdan, kazeinni parchalashi kuzatilmadi.



6-7-Rasmlar. *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining amilaza (1-2) va proteaza fermenti faolliklari (3-4)

Navbatdag'i tadqiqotimizda, *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining 0, 30, 60 va 90 daqiqa oraliqlarida pH ko'rsatkichlariga chidamliligi o'rganildi (8-rasm).



8-Rasm. *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining (30, 60 va 90 daqiqa oralig'ida) pH -2 muhitiga chidamlilik ko'rsatkichlari

Tadqiqot natijasiga ko'ra, *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlari 30, 60 va 90 daqiqa oralig'ida pH -2 muhitiga chidamliligi kuzatilmadi.

Shtammlarning qoramol safrosi ta'siriga chidamliligini aniqlashga oid tadqiqotlarda *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining pH-8 muhitiga chidamliligi o'rganildi.

Tadqiqot natijasiga ko'ra, *B.amyloliquefaciens*-1 shtammida qoramol safrosiga chidamlilik ko'rsatkichi 1soat ichida o'sishb kuzatilgan bo'lsa, 2 soatda o'sishi kuzatilmadi. *B.amyloliquefaciens*-2 shtammida esa umuman o'sish jarayoni aniqlanmadи (9-rasm).



9-Rasm. *B.amyloliquefaciens*-1 va *B.amyloliquefaciens*-2 shtammlarining qoramol safrosiga chidamlilik ko'rsatkichlari

Shunday qilib, Kalanxoe degremona dorivor o'simligidan yangi bakteriya izolyatlari ajratilib, uning probiotik xususiyatlari o'rganildi. Tanlab olingen faol shtammlarning qattiq va suyuq ozuqa muhitlari o'sishi, jelatinaza, katalaza, gemolitik, amilaza, proteaza va lipaza kabi ferment sintezlash qobiliyatlar, kislotali pH muhit va safroga chidamliligi kabi parametrlari o'rganildi. *Bacillus amyloliquefaciens* -1 shtammini jelatinaza, gemolitik, amilaza, proteaza va lipaza fermentlarini sintezlash qibiliyatlar, kislotali pH muhit va safroga chidamlilik xususiyatlarini inobatga olgan holda, chorva mollarining ichak mikroflorasi tarkibini maqbullashtirish uchun probiotik sifatida boyitilgan ozuqa tayyorlashda qo'shimcha mahsulot yoki probiotik xususiyatl mahalliy yangi shtamm sifatida foydalanishga tavsya qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

- Shoxiddinova M.N., Tojeyev B.B., Tojiyeva M.B. Search and isolation of endophytic bacteria from medicinal plants and determination of their morphological and cultural properties // Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. 2021, 3, P. 23-25. (Impact Factor – 7.892).
- De Vrese M., Schrezenmeir J. Probiotics, prebiotics, and synbiotics // Adv. Biochem. Eng./Biotechnol. – 2008. – V. 111. – P. 1–66. – doi: 10.1007/10_2008_097.
- Patel R., DuPont H.L. New approaches for bacteriotherapy: Prebiotics, new generation probiotics, and synbiotics // Clin. Infect. Dis. – 2015. – V. 60, Suppl. 2. – P. S108–S121. – doi: 10.1093/cid/civ177.
- Sánchez B., Delgado S., Blanco-Míquez A., Lourenço A., Gueimonde M., Margolles A. Probiocites, gut microbiota, and their influence on host health and disease // Mol. Nutr. Food Res. – 2017. – V. 61, No 1. – doi: 10.1002/mnfr.201600240.
- Poxilenko V.D., Perel'shchin V.V. Probiotiki na osnove sporoobrazuyushchix bakteriy i ix bezopasnost // Ximicheskaya i biologicheskaya bezopasnost. – 2007. – № 2–3. – S. 20–41.
- Hong H.A., Dule L.H., Cutting S.M. The use of bacterial spore formers as probiotics. FEMS Microbiol. Rev., 2005, vol. 29, no. 4, pp. 813–835. doi: 10.1016/j.femsre.2004.12.001.
- Morozova M.A., Gorovtsov A.V., Prazdnova E.V., Basankina V.M., Chistyakov V.A., Pepoyan A., Miralimova Sh., Grigoryev V.A. Bacteria of genus *Bacillus* as antagonists of pathogens in aquaculture. Vestnik of Astrakhan State Technical University. Series: Fishing Industry. 2023. N. 1. RR 89 – 97.